

Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

2-bosqich A potok 1-guruuh talabasi

farangizaliyeva1402@gmail.com

Tel: (90) 533-56-89

(94) 459-08-66

Muqaddas yurtimizda har qishning o'ninchi kuni navobaxsh kuy bo'lmish madhiyamiz bilan boshlanishi odatiy tusga kirgani sir emas. 10-dekabr sanasi tariximizga biz uchun suv va havo kabi zarur bo'lgan madhiyamiz qabul qilingan kun sifatida kiritilganligi ham quvonarli. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir O'zbekiston fuqarosi uni yoddan bilishi va yosh avlodga bolaligidan singdirilishi g'ururimizga g'urur, faxrimizga faxr qo'shadi. Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi qomusi - Konstitutsianing 5-moddasida aynan davlat ramzlarimiz, xususan, madihayamiz haqida ham so'z borar ekan, bu madhiyamiz davlat, jamiyat, xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi, desak adashmagan bo'lamic.

Kelajagimiz poydevori, ertamiz tayanchi hisoblangan jajji bolajonlar, maktab o'quvchilari madhiyamizni harf tanimasdan ilgari yod olishgani va uni shu qadar maromga yetkazib kuylay olishlari nafaqat uning shiraliligi, balki so'zlarining o'zi ham o'qilganda qo'shiq bo'lib yangrashi odamni baxtiyor qiladi. Mamlakatimizda bu borada davlat dasturlari, chora-tadbirlar yetarlicha ishlab chiqilib, amaliy jihatdan xalq ommasiga tatbiq etilishi ustidan nazorat o'rnatilgan va bu, albatta, o'zining ijobiy samarasini namoyon qilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarini qamrab olishga allaqachon ulgurgan turli xildagi tanlov, tadbir yoki musobaqalarning tashkil etilishi an'anaga aylangani alohida e'tiborga loyiq.

Davlat madhiyasining muallifi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo'lib, musiqasini O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan. Quyidagi misralar aynan buning isboti:

Yashnagay to abad, ilm-u fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon.

Madhiya – qalbida o'z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi, yurtga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'yi, maslak-

maqsadi mujassam. Madhiya faqat madh etish uchun emas, balki e'tiqodning ifodalananishidir. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzulari, uning ezgu niyatlari, bugungi hayot mazmuni aks etadi. Shuningdek, milliy madhiyamiz muazzam sadolari davlatimiz rahbarining turli mamlakatlarga rasmiy tashriflari chog'ida, O'zbekistonga kelgan xorijiy mamlakatlarning rahbarlarini kutib olish marosimlarida, yurtimizda o'tayotgan umumxalq bayramlarida, yirik xalqaro anjumanlar, tinchlik va do'stlik kelishuvlarida, sport musobaqalarida va sportchilarimizning xalqaro musobaqalarda eng baland shohsupaga ko'tarilgan paytida baralla yangramoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, madhiyamiz sadolari yuraklarni zavqqa to'ldiradi va ayni uning navosi ovoz to'lqinlaridan yangraganda beixtiyor o'zbekning qo'lini ko'ksiga keltiradi. Bu ham madhiyamizga bo'lgan hurmat va ehtirom, e'zoz va sharaf belgisidir. Shuni ham aytish joizki, "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonunda madhiyaning qayerda, qay holatda, qanday kuylash kerakligi aniq, ravshan belgilab qo'yilgan qat'iy qoidalar to'plami mujassam.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining birinchi ijrochisi va etaloni rasmiy ravishda O'zbekiston Milliy simfonik orkestri etib belgilangan va keyingi yillar davomida madhiya ovoz yozish studiyalarida qaytadan, to'rt xil yangi uslubda yozib chiqilib, keng xalq ommasiga taqdim etildi. Jumladan, "rasmiy" madhiya qatori "jiddiy", "odatiy", "yoshlarbop" va "matnsiz" shakllari bilan boyitildi. Hozirgi kunda esa madhiyani muassasa yoki marosim turiga qarab, yuqoridagi shakllardan birida ijro etish, kuylash mumkin. Masalan, maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida uning "yoshlarbop" turidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchidir deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, mamlakatimizda yashab turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shartligi alohida ta'kidlangan.

Davlat madhiyasining muallifi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo'lib, musiqasini O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan.

Madhiya – qalbida o'z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'yi, maslak-maqsadi mujassam.

O'zbekiston davlat madhiyasi yangraganda, «Serquyosh» so'zi jaranglashi bilan butun vujudimizda ajib entikish, dilimizda cheksiz iftixor tuyg'usini his etamiz. Chunki unda yurtimiz tarovati, buyuk kelajak barpo etish yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan xalqimizning orzu-intilishlari, O'zbekistonimizning jahon hamjamiyatida

tobora yuksalib borayotgan obro‘-e'tibori, hech kimdan kam bo‘lmay, kelajakka qat'iyishonch bilan intilayotgan yoshlarimizning azmu shijoati aks etgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o‘zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama barkamol va yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Inson vujudidagi salomatlik yetmish ikki tomirdagi qon aylanishining mo“tadilligi bilan baholansa, uning jamiyatdagi obro‘-e'tibori, odamiylik qiyofasi yana ikki mezonda chamalanadi — Iymon va Vijdon. Zero, iymoni pok odam ezgulikka moyil bo‘ladi.

U har doim yon-atrofdagi kishilarga, demakki, yurtiga, Vataniga xizmat qilishni o‘zining insoniylik burchi deb biladi. Vijdon uyg‘oqligi esa kishini sergaklikka, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtiga oid har qanday jarayonga daxldorlik hissini tarbiyalaydi. Bu xislatlar vatanparvarlikdan dalolatdir.

Davlat ramzları ham vatanparvarlik fazilatini shakllantiruvchi, shu aziz yurtimizni jonu dildan sevishga undovchi muhim vositadir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning azaliy orzu-istiklari, ezgu intilishlari O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlarida o‘zining yorqin ifodasini topdi. Chunonchi, Vatanimiz madhiyasi ham uning o‘zi kabi aziz va muqaddasdir.

1992 yil 10 dekabr tariximizga mustaqilligimizni mustahkamlash davrining muhim voqeligi sodir bo‘lgan kun sifatida kirdi. Bilasiz, ushbu sanada O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining huquqiy maqomini belgilovchi qonun qabul qilindi. Madhiyamiz mamlakat mustaqilligi, xalq ozodligi davlatning buyuk kelajagi haqida kuylaydigan, farovon jamiyat qurilishi yo‘lida fidokorona mehnat, bunyodkorlik va tadbirkorlikka ruh bag‘ishlashga xizmat qiladigan istiqlol ramzidir.

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,

Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon.

Yashnagay toabad ilmu fan, ijod,

Shuhrating porlasin, toki bor jahon...

Ana shunday satrlar bilan boshlanuvchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangrab, bayrog‘imiz boshimiz uzra hilpiraganda, ozod Vatanimizga nisbatan qalbimizning tub-tubida g‘urur paydo bo‘ladi, hurmat-e'tibor kuchayadi, faxr-iftixor hissi jo‘sht uradi. Bu muazzam sado azmu shijoatli xalqimizning ruhiga ruh, kuchiga kuch bag‘ishlab, yangidan-yangi bunyodkorlik ishlariga da‘vat etadi.

Madhiya faqat madh etish uchun emas, balki e'tiqodning ifodalani shidir. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzulari, uning ezgu niyatları, bugungi hayot mazmuni aks etadi. Davlat madhiyasining huquqiy maqomi maxsus qonun bilan mustahkamlanib, uning maqsadi davlat suverenitetiga bo‘lgan e'tiqodning rasmiyligini ta'minlash, davlat

suverenitetining idrok qilinishi uchun matn va musiqa yordamida ifodalashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi mustaqillikka e’tiqodni targ‘ib qiladi. Uning matni fuqarolarimizni mustaqil davlat qurish yo‘lida matonat va jasoratga, sabr-toqat va fidokorlikka, tashabbuskorlik va kurashga chaqiradi, milliy g‘ururni uyg‘otadi. Madhiyamiz bayramlar, siyosiy chiqishlar, sport anjumanlari, rasmiy davlat qabullari, ahamiyatli mitinglar, turli davlat boshliqlarini kutib olish va kuzatish marosimlari hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda ijro etilib, davlat suverenitetiga e’tiqod va hurmatni rasmiy musiqa hamda matn bilan ifoda etadi.

Yurtimiz vakillari ishtirok etadigan xalqaro miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalarida mazkur shukuhli tarona jaranglaganda qalblarimiz faxru iftixorga to‘ladi.

Bu ulug‘vor qasidani tinglaganda, kuylaganda beixtiyor eng jo‘shqin, umidbaxsh tuyg‘ular junbushga keladi. Ko‘z oldimizda ezgu niyatlari o‘ziga esh xalqimiz, ona-Vatanimizning tarovati, boy tarixi, saodatlari buguni va buyuk kelajagi namoyon bo‘ladi.

Yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini mujassam etgan madhiyamiz bugun ta’lim maskanlarida yosh avlodning Vatanga muhabbat ruhida kamol topishiga xizmat qilmoqda. Endi harf taniy boshlagan jazzi farzandlarimiz millatimizning bosh qo‘srigini kuylay boshlaganida sevinchdan hayajonga tushamiz. Bunday lahzalarda xalq va Vatan ulug‘langan qo‘srig insonlar qalbiga yuksak va beg‘ubor tuyg‘ularni jo etishga, bu yorug‘ olamni yanada munavvar ko‘rsatadigan ilohiy mo‘jiza ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Yurtning eng ulug‘ qo‘srigini e’zozlash, yod olish va baralla kuylash har bir yurtdoshimizning burchidir.

Shukrki, mamlakatimizda tinchlik — osoyishtalik, totuvlik hamda inoqlik, birdamlik va hamjihatlik hukm surayotir. Vatanimizning kuch-qudrati, salohiyati, obro‘-e’tibori ham tobora yuksalmoqda. Eng muhimi, ozod yurtimizning hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlari kelajakka qat‘iy ishonch bilan yuksak marralar sari dadil odimlamoqda.

Har tongni madhiyamiz sadolari bilan qarshi olamiz. Qalbimizda yangi kunga, istiqlolga va bugungi tinch-osoyishta hayotimizga shukronalik, kelajakka qat‘iy ishonch tuyg‘usi jo‘sh uradi.

Demak istiqlolimizni, yurtimizning kuch-qudrati, xalqimizning aql-zakovati, ajdodlarimizning shon-shuhrati va avlodlarimizning yorug‘ kelajagini sharaflovchi bu tarona asrlar osha baralla yangrayveradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, demak, istiqlolimizni, yurtimizning kuch-qudrati, xalqimizning aql-zakovati, ajdodlarimizning shon-shuhrati va avlodlarimizning yorug‘ kelajagini sharaflovchi bu tarona asrlar osha baralla yangrayveradi, mangu tillarda jaranglaydi, barhayot qalblarda muhrlanadi!